

PEDAGOGIK JARAYONDA O'QUVCHILARGA PSIXOLOGIK TA'SIR KO'RSATISH: NAZARIYA VA AMALIYOT

Sultonova Svetlana Allambergenovna

Nukus shahri 29-sonli maktab psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20176129>

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik jarayonda o'quvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish muammosi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Psixologik ta'sirning mohiyati, uning turlari (ochiq va yopiq, ongli va ongsiz, uyqu va hushyorlik davrlarida), shakllari va samaradorlik shartlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada amerikalik psixologlarning klassik tajribasi misolida o'qituvchi kutishining (Pygmalion effekti) o'quvchi muvaffaqiyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, guruhdagi psixologik muhit va ta'limning individual yondashuvi kabi omillarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: psixologik ta'sir, pedagogik ta'sir, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, Pygmalion effekti, ochiq va yopiq ta'sir, gipnopediya, psixologik muhit, ta'limda individual yondashuv.

Pedagogik jarayonda o'quvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish muammosi bilan psixologlar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar faol shug'ullanmoqdalar. Buning sababi shundaki, ta'lim va tarbiya jarayonining o'zini o'qituvchining o'quvchi ruhiyatiga, ongiga, dunyoqarashiga doimiy ta'siri deb qarash mumkin. O'qituvchi har bir darsda, har bir suhbatda, hatto o'zining mimikasi, intonatsiyasi va xatti-harakati bilan o'quvchilarga ta'sir o'tkazadi.

Keng ma'noda psixologik ta'sir – bu bir shaxsning (yoki guruhning) boshqa shaxs (yoki guruh) ongiga, hissiyotlariga va xulq-atvoriga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, natijada ta'sir oluvchining qarashlari, motivlari, qadriyatlar va xatti-harakatlarida o'zgarishlar yuzaga keladi.

Kechingi yillarda zamonaviy psixologiyaning bir qancha yo'nalishlari – psixoanaliz, gumanistik psixologiya, neyrolingvistik dasturlash (NLP), bixevorizm va kognitiv psixologiya – pedagogik jarayonga faol kirib kelmoqda. Ushbu yo'nalishlarning ba'zi metodlari umumiy va oliy maktab amaliyotida qo'llanilmoqda. Ta'lim muassasalarida «psixologik xizmat» ning paydo bo'lishi va o'quvchilarning psixologik bilimlarining oshishi (oliy maktab va malaka oshirish institutlarida psixologiya fanlarini o'qitishning yaxshilanishi) natijasida o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi o'zaro psixologik ta'sirning sifat jihatdan yangi bosqichiga ko'tarilmoqda.

Pedagogik jarayondagi psixologik ta'sir ikki tomonlama xususiyatga ega:

1. O'qituvchining o'quvchilarga ta'siri (bevosita va bilvosita).
2. O'quvchilarning o'qituvchiga va bir-biriga ta'siri (o'zaro ta'sir).

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini AQSh psixologlari tomonidan o'tkazilgan klassik tajriba misolida ko'rish mumkin. Tajribaning borishi: Oddiy maktabda o'quvchilarning intellekt darajalari testlar yordamida aniqlandi. Psixologlar har bir sinfdan bir nechta o'rtacha yoki past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning familiyasini «yashirincha» aniqlab, o'qituvchilarga quyidagicha tushuntirishdi: *“Bu o'quvchilar hozircha yomonroq o'qiyapti, ammo aslida ular iqtidorli va fidoyi o'quvchilardir”*

Bir yil o'tgach, psixologlar shu sinflarga qaytib kelib, yana test o'tkazdilar. Natijada, o'qituvchilarga “iqtidorli” deb bildirilgan o'quvchilar sinfdoshlariga qaraganda barcha fanlardan sezilarli darajada ilgari ketganliklari aniqlandi.

Bu psixologik hodisaning sabablari: O'qituvchilar olimlarning fikriga asoslanib, bu o'quvchilarga nisbatan o'z munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirdilar. O'quvchilar o'zlariga nisbatan o'qituvchining munosabati yaxshi tomonga o'zgarganligini sezib, bu ishonch va munosabatga loyiq bo'lish uchun o'z ustida jiddiy ishladilar.

Bu hodisa psixologiyada «Pygmalion effekti» (yoki o'qituvchi kutishi samarasi) deb ataladi. Uning mohiyati: o'qituvchining muayyan o'quvchiga nisbatan ijobiy kutishlari (umidlari) real ravishda shu o'quvchining yuqori natijalar ko'rsatishiga olib keladi. Aksincha, salbiy kutishlar (stigma) o'quvchi muvaffaqiyatini pasaytiradi.

Psixologik-pedagogik ta'sir mazmuniga qarab: ochiq va yopiq ta'sir

a) Ochiq ta'sir – bunday shakldagi ta'sir o'quvchining ma'lum xatti-harakati yoki xulq-atvorini korrektsiyalashga, to'g'rilashga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi o'z fikrini ochiq bayon qiladi.

Misollar: "Men bilaman, sen irodasi kuchli yigitsan, ishonamanki, bundan keyin bunday ishni qilmaysan". "Xatolaringizni ko'rib turibman, lekin ularni tuzatishga qodirligingizga ishonaman".

b) Yopiq ta'sir – bu usulda psixologik ta'sirning asosiy maqsadi pardalangan (yashirin) holda bajariladi. Ta'sir bevosita nom aytmasdan, bilvosita amalga oshiriladi. Xalq orasida bunday usul: *"Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit"* tarzida ifodalanadi. *Amaliy misol: Bir tajribali o'qituvchi hikoya qiladi: "Guruhimdagi K. ismli qizning vaqt o'tishi bilan o'g'il bolalar bilan juda yaqinlashib, hatto sigareta chekayotganligi ma'lum bo'lib qoldi. Qiz juda tez xafa bo'ladigan, kek saqlovchi edi. Shuning uchun barcha qizlar bilan birgalikda «sigaretaning qiz va ayol organizmiga zarari», «erta jinsiy uyg'onish va uning salbiy va ijobiy oqibatlari» mavzularida suhbatlar tashkil etdim va gap orasida qizning nomini tilga olmasdan, unga psixologik ta'sir ko'rsatdim. Natija kutilganimdan ham yaxshi bo'ldi".*

Pedagogik jarayonda o'quvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish – bu murakkab, nozik va yuksak mas'uliyat talab qiladigan faoliyatdir. Pygmalion effekti misolida ko'rganimizdek, o'qituvchining ijobiy munosabati va o'quvchining qobiliyatiga bo'lgan ishonchi haqiqiy o'quv muvaffaqiyatiga olib kelishi mumkin. Ochiq va yopiq ta'sir shakllarini o'rinli qo'llash, guruhdagi psixologik muhitni barqaror saqlash, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish – bularning barchasi samarali psixologik ta'sirning asosiy shartlaridir.

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatining kuchayishi va o'qituvchilarning psixologik bilimlarining ortishi, o'z navbatida, o'quvchilarga ta'sir etishning insonparvar, demokratik va samarali usullarining joriy etilishiga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Azizxo'jayeva H.H. O'qituvchi tayyorlashda pedagogik texnologiyalar. - Toshkent, 2000.
2. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya. - M., 1999.